

# Journal of Natural Science

*No1 (6)  
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н-ЖДПИ к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**TALABALARNING TIZIMLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

*Ortiqova Lola-dotsent*

*Ostonov Sherzod-magistr*

*Mamadiyorov Ilhom-magistr*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya:** Zamon talablariga mos ravishda talabalarga har bir fan doirasida chuqur ma'lumotlar berib o'qitish usullarini yanada takomillashtirish hamda tibbiyot, xususan shu sohaga oid bilimlarni rivojlantirish.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tog'risida qonun, tizim, biologiya.

**Аннотация:** дальнейшее совершенствование методов обучения путем предоставления студентам углубленной информации по каждому предмету в соответствии с требованиями времени, а также развитие знаний в области медицины и, в частности, в этой области.

**Ключевые слова:** закон, система, биология в сфере образования.

**Abstract:** further improvement of teaching methods by providing students with in-depth information on each subject in accordance with the requirements of the time, as well as the development of knowledge in the field of medicine and, in particular, in this area.

**Key words:** law, system, biology in the field of education.

Biologiya (bio va logiya)— tirik tabiat haqidagi fanlar majmuasi. Biologiya hayotning barcha ko'rinishlari: tirik organizmlar va tabiiy jamoalarning tuzilishi va funksiyasini, tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va tarqalishi, ularning bir-biri va yo tirik tabiat bilan o'zaro bog'lanishini o'rganadi. Biologiyaning asosiy vazifasi tiriklikning namoyon bo'lishi qonuniyatlarini o'rganish, hayotning mohiyatini ochib berish, tirik organizmlarni sistemaga solishdan iborat.

“Biologiya” terminini 1892 yilda bir-biridan mustasno tariqasida birinchi bo'lib J. B. Lamarck va G. R. Treviranus taklif etishgan. Bu termin T. Roze (1797) va K. Burdax (1800) asarlarida ham uchraydi. O'zbek olimlari ham biologiya faniga o'zining munosib hissalarini qo'shganlar. Qadimda bobolarimizdan Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi olimlar o'zlarining kitoblarida dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan dorilar haqida bir qancha ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Ular asosida tibbiy bilimlar shakllangan. Abu Ali ibn Sino bobomiz o'zining “Tib qonunlari” kitobida dorivor o'simliklar va ular yordamida davolanadigan dorilar haqida ma'lumot berib o'tgan dastlabki tibbiyot asoschisi bo'lib uning asari besh asrdan buyon tibbiyotda qo'llanilmoqda. Bularning hammasi inson salomatligini asrashning yo'llari demakdir. Hozirgi kunda kasalliklar avj olgan paytda aynan iqtisod sohasidagina emas tibbiyot sohasida ham yutuqlarga erishilmoqda, yangi-yangi kashfiyotlar qilinmoqda, kasalliklarga davo topilmoqda, mamlakatimizda ham

yaratilayotgan har bir islohot albatta o'z samarasini bermoqda xususan ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar kundan kunga takomillashmoqda. Bunga misol qilib kuni kecha prezidentimizning video selektorida ham ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning mohiyatini aytib o'tdilar bunda “Yangi O'zbekiston - maktab ostonasida” shiori ostida ulkan strategik harakatlar ham albatta quvonarlidir. Davlatimiz mana shunday pandemiya sharoitida ham onlayn dars tizimini yaratib biz yoshlarga juda katta imkoniyatlar yaratib berdi. Bundan tashqari rivojlangan mamlakatlar AQSH, Xitoy, Rossiya kabi davlatlar ham bu tizimga o'tdilar O'zbekiston ilk bora onlayn dars tizimini yaratgan mamlakat sifatida e'tirof etildi. Xususan biz talabalarga ham biologiya darsligida tizimli tafakkurni rivojlantirish va berilayotgan bilimlar samarasini oshirish va innovatsion ta'lim tizimini joriy etish maqsadga muvofiq sanaladi. Negaki biologiya darsligi bir qancha sohalar bilan bog'liq ko'p tarmoqli fan hisoblanadi. Misol qilib birgina olma daraxtini olaylik u biologik nuqtayi nazardan olganda hayotiy shakli daraxt bo'lgan o'simlik shox-shabbasi yoyiq lekin biz shu bilangina cheklanib qolmasdan geografik, kimyoviy dalillar bilan yoritib o'rganayotgan bolalarga bir nechta ma'lumotni berib o'tilgani maqsadga bog'liq. Aynan bu pandemiya sharoitida ham tibbiyotning yanada mavqeyi oshdi unga bo'lgan talab yanada kuchaydi bu sohani rivojlantirish esa dastlabki bilimlar asosida shakllanib boradi. Maktab yoshida olingan bilimlar to'planib amaliyotga targ'ib etilsa mamlakatimizda tibbiyotning jadallashuviga olib keladi. Deylik maktab o'quvchilari anatomiya darslarida olgan bilimlari turli xil vaziyatlarda qo'l kelishi mumkun. Masalan, biror bir yaqin insoni aytaylik do'stining qandaydir kasalligi bor unga yordam ko'rsatish kerak yoki suv havzasida cho'milgan bolalardan biri cho'ksa unga birinchi yordam ko'rsatishni bilsa uni hayotini saqlab qolgan bo'ladi. Albatta biz talabalar o'zimizning mutaxassisligimizningina emas, balki boshqa fanlarni ham chuqur o'rganib bolaga bilim berish tizimini takomillashtirishi kerak. Ko'rinib turibdiki bularning hammasi tizimli islohotlarning natijasidir. Aynan, O'zbekiston ham iqtisodiyot va siyosat sohasida ham tizimli rejalarni yo'lga qo'ydi. Tizim bu nima? Tizim bu- ketma-ketlik degani. Ketma-ketlik asosida bajariladigan har bir ishni tizim deb atasak boladi. Albatta har bir talaba ham kelajakda o'z kasbining ustasi, mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun o'z oldiga tizimli rejalarni qo'yib olmog'i darkor. Negaki har bir bolaga beriladigan bilimlarimizni samarasi, sifati bo'lmog'i darkor. Birgina biologiya darslari misolida tizimli tafakkurni rivojlantirmog'i lozim. Talaba avval biologiya darslarida o'simliklarning ba'zi turlarini o'rgangan bo'lsa endilikda esa o'simliklarning ko'pgina ajoyib turlarini o'rganadi. O'simlik dunyosidan tortib eng murakkab tuzilgan inson organizmini o'rganish jarayonida talabada tizimli tafakkur rivojlanadi. Bu esa kelajakda biz talabalarning o'z mutaxassisligimizning yetuk kadri bo'lib yetishishimiz uchun yana

bir pog'ona hisoblanadi. Har bir talaba o'z tizimiga ega bolmog'i kerak negaki rivojlanishning poydevori. O'zbekiston ham ta'lim tizimida yangi islohot oshirdi, ya'ni 1997-yil 26-avgustdagi “Ta'lim to'g'risidagi” qonun qabul qilingan bo'lsa, 2020-yilning sentyabr oyida yangi ta'lim tizimidagi qonun joriy etildi. Bu qonun O'zbekistonning ta'lim tizimida chuqur innovatsion o'zgarishlar amalga oshirishidan dalolatdir. Xulosa qilamanki, biz talabalar ham albatta o'z tizimimizga ega bo'lamiz va tanlagan kasbimizda ulkan marralarga erishamiz. Zero bu jannatmonand O'zbekistonimiz yangi kelajagi biz yoshlarning qo'lida.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. N.S.Saidaxmetov, A.Ochilov Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. «Xalq ta'limi».
2. Ta'lim taraqqiyoti umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, «Sharq nashriyoti, matbaa konserni». 1999 yil 3-son.
3. Ishmuhammedov R.J. “Inovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samadorligini oshirish yo'llari” Toshkent. 2004 y.
4. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. Samarqand 2004 y.
5. Biologiya 6-sinf darsligi (2017-yil nashr